

## URBANIZATSIYALASHUV JARAYONINING EKALOGIYAGA TA'SIRI

*Ochilova Maftuna Omonjon qizi*  
*Urganch davlat Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunda urbanizatsiyalashuv jarayonining ekalogiyaga ta'siri, urbanizatsiyalashuvning keng tarqalgan hududlari va bugungi kunda keltirib chiqaradigan muammolari, ushbu muammolarni hal qilishga oid chora-tadbirlari haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** E.Y. Bezugalya, urbanizatsiya, ekalogiya, sanoat, transport, shaharlar atmosferasi, ko'chki, issiqlik manbaalari, Kaliforniya, gravitatsiya, magnit maydon, Tokio

Hozir va kelajakda tabiiy muhitga urbanizatsiya jarayonining ta'siri kuchli darajada bo'lishiga shubha yo'q. Chunki shahar aholisining salmog'i yildan yilga ortib bormoqda. Urbanizatsiyaning jadal rivojlanishi yer yuzasida ekalogik vaziyatning murakkablashishiga ta'sir ko'rstmoqda. Urbanizatsiya jarayoni tabiat komponentlarining barchasida kuchli o'zgarishlar sodir etilishi ayon. Shaharda gurunt, relief, tuproq gidrografik tarmoqlar yer osti suvlari, atmosfera havosi, o'simlik qoplami, hayvonot dunyosi hatto iqlim o'zgaradi. Shaharlarda nafaqat harorat, nisbiy namlik, quyosh radiatsiyasi balki yerning issiqlik, gravitatsiya elektr hamda magnit maydonlari xususiyati ham sezilarli darajada o'zgaradi. Shaharlarning kattalashishi uning atrof tabiatga ta'sir radiusini ham orttiradi, natijada shahar hududi bilan birga uning atrofida ekalogik vaziyatdagi mutanosiblik yo'qoladi. Shaharlar atrofida tabiiy hududiy majmualarga 3-30 km masofada ta'sir ko'rsatadi. Sanoat korxonalarining turli chiqindilar (zaxarli gaz, iflos suv va hokazo) chiqarilishi oqibatida shaharlar atrofida ekin dalalari, o'tloq, yaylov, suv havzalari va o'rmonlar zarar ko'rmog'ida. Kanadalik olimlarning kuzatishlaricha, mis nikel korxonalarida chiqindilari 3.5 km radiusdagi o'simlik va hayvonlarni butunlay yo'q qilishi, 13 km dagi daraxtlarga kuchli shikast yetkazishi tuproq unumdorligini yo'qotishni ko'rsatadi. Tog'-metallurgiya korxonalarida ta'siri ham yuqoridagidan kam emas. Ko'pgina shaharlarda yerosti suvlaridan iste'molga olinishi oqibatida shahar zaminining ko'kishi ro'y bermoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, Toki ova Osakada zamin yiliga 18-20 sm, Kaliforniyada 30-35 sm. Mexikoning ayrim hududlarida 40 sm ga pasaymoqda. Shahar zaminining ko'kishi insonning boshqa faoliyatlari bilan ham bog'liqdir. Masalan Moscovada shahri ostidagi suv quvurlari uzunligi shahar ko'chalari umumiy uzunligidan 2 marta ko'p ekan. Demak bu shaharning turli hududlarida o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yangi shaharlarning barpo etilishi, eskilarning kengayishi avvalo yerning qishloq xo'jaligidan chegirilishiga sabab bo'ldi. MDH da

sobiq sho'rolar davrida 1200 ta yangi shaharlar barpo etilgan. Shahar relyefining tekislanganligidan gidrografik tarmoqlardagi oqim qiyinlashadi. Pastqamliklarda ortiqcha suv to'planishidan relyefda ulkan surilmalar vujudga keladi. Imoratlarning yerto'lalari zaxligidan turli kasallilarni tarqatuvchi mikroorganizm va hashorotlar uchun makonga aylanadi. Yirik shaharlarda havoning ifloslanganligi tufayli quyosh nurini 15% (qishda ultrabinafsha nurlarini 30%) kam olishi aniqlangan. Bundan tashqari shaharlarda yog'ingarchilik va bulutli kunlar 10% tumanlik yozda 30%, qishda 100% ortiq bo'lishi ma'lum. Turli qurilmalar issiqlik manbaalarining ko'pligi havoning iflosligi tufayli shaharlarda o'ziga xos og'ir mikroiklim shakllangan. Shaharlarda ayniqsa yozda kechqurunlari shaharga salqin havo tushishini qiyinlashtiradi. Sanoat va transport shaharlar atmosferasi tarkibida xilma-xil ko'chki, zararli gaz va metallar miqdorining ortishiga sabab bo'lmoqda. Shahar havosining doimiy birikmalariga aylanmoqda. Metallurgiya ba'zan neft-kimyoy korxonalariga ega bo'lgan shaharlar havosi tarkibida odatda sulfat II oksidi aralashmalari yuqori darajada bo'ladi.

E.Y. Bezuglaya (1980) shahar havosi ifloslanishi borasida muhim qonuniyatni aniqlagan. Aholisi soni 250-500 ming kishi bo'lgan shaharda havoning sulfat II oksid bilan ifloslanish darajasi 100 ming kishilik shaharga nisbatan 60-80%, yirik shaharlarda esa ushbu ko'rsatkich 100% dan ham ortishi kuzatiladi. Shahar havosining nisbatan ifloslanganligi umuman urbanizatsiya jarayoni ekalogik vaziyatga kuchli ta'sir etmoqda. Aholi o'rtasida turli yuqumli og'ir kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishi shaharda o'lim ko'rsatkichlarining yuqoriligi bevosita urbanizatsiyaning ekalogik vaziyatga salbiy ta'siri natijasidir. Urbanizatsiyalashuv jarayonining ekalogiyaga bo'lgan ta'sirini kamaytirish maqsadida turli xil chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Shaharlaning ifloslanishiga qarshi kurash bo'yicha davlat tadbirlarini markazlashgan holda amalga oshirish;
2. Aholining ixtiyoriy harakatlarini (migratsiya) ehtiyojlarga mos keladigan yo'nalishlarda rag'batlantirish;
3. Iqtisodiyotning talablarini optimal hisobga olish, atrof- muhitning tozaligini saqlash, odamlar uchun, mehnat va dam olish uchun eng qulay shart-sharoit yaratish zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tabiat insonga berilgan eng oliy ne'matdir. Tabiatdan oqilona foydalanish, uni asrab- avaylash har bir insonning vazifasidir. Har bir davlat ekalogiyaga, atrof- muhitga bo'lgan ta'sir doirasini ijobiy tarzda olib borsin, ekalogik madaniyatni shakllantirsin, global muammolarning oldini olgan bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shaharlar geografiyasi. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Toshkent 2018.
2. Shaharlar geografiyasi o'quv qo'llanma. Soliyev A.S. Toshkent 2018.